

O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH VA QO'LLAB-QUVVATLASH

Teshabayeva Odina Nasriddinovna-

katta o'qituvchi, i.f.f.d, PhD, odina_0505@mail.ru,

Boltabayeva Zilola Baxtiyor qizi-

*Iqtisodiyot fakulteti mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish yo'nalishi
talabasi, FarDU*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston turizm sohasining iqtisodiyotdagi o'rni, mehnat bandligiga ta'siri va tarmoqlararo integratsiyalashuv darajasi tahlil qilinadi. Mamlakatda turizm katta salohiyatga ega bo'lishiga qaramay, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi hozircha past darajada — 0,5 foizni tashkil etmoqda. Ushbu sohaga bevosita jalb qilingan mehnat resurslari soni nisbatan cheklangan bo'lsa-da, sayyohlik xizmatlariga bilvosita bog'liq bo'lgan tarmoqlarda ish o'rinlari salmog'i ancha yuqori. Turizmning o'ziga xosligi — bu sohaning faqat xizmatlar ko'rsatish bilan cheklanmasdan, energetika, transport, bank, aloqa, xavfsizlik, sog'liqni saqlash kabi 20 dan ortiq tarmoqlar bilan uzviy bog'liqligidir.

Kalit so'zlar: Turizm sohasi, raqobatbardoshlik, xizmatlar bozori, mehnat bandligi, xizmatlar sifati, turizm infratuzilmasi.

Kirish

O'zbekiston turizm sohasida katta salohiyatga ega bo'lishiga qaramay, bu yo'nalish yalpi ichki mahsulot tarkibida hozircha atigi 0,5 foiz ulush bilan ishtirok etmoqda. Hozirgi kunda turizm sohasida to'g'ridan-to'g'ri taxminan 6 ming nafar kishi band bo'lsa-da, bevosita sayyohlik xizmatlari bilan bog'liq bo'lgan kamida 30 mingta qo'shimcha ish o'rni mavjudligi haqida fikr yuritish mumkin. Turizm sektori nafaqat sayyohlarga xizmat ko'rsatishni, balki ularga zarur tovar va xizmatlarni yetkazib beruvchi boshqa ko'plab tarmoqlarning faol ishtirokini ham talab etadi. Bular qatoriga energetika, kommunal xo'jalik, transport va yo'l infratuzilmasi, jamoat xavfsizligi, sog'liqni saqlash, sug'urta, bank tizimi, tashqi siyosat va aloqa kabi xalq xo'jaligining 20 dan ortiq tarmoqlari kiradi. Turizm sohasining o'ziga xosligi shundaki, bu yerda xizmat ko'rsatish darajasi va sifati ma'lum mezonlar asosida baholanishi mumkin bo'lsa-da, sayohat natijasida paydo bo'ladigan ba'zi noan'anaviy "samara"lar — ya'ni mehmonning estetik zavqi, ma'naviy oziqlanishi, shaxsiy qoniqish hissi, taassurotlari kabi omillar aniq o'lchovlar orqali baholab bo'lmaydi.

Ma'lumki, tovarlar bilan savdo qilish xizmatlar bilan savdodan tubdan farq qiladi.

Xizmatlar o'ziga xos iqtisodiy mahsulotlar bo'lib, ular transport, kommunikatsiya, qurilish, sug'urta, moliya, axborot texnologiyalari, kompyuter xizmatlari, buxgalteriya hisobi va boshqaruv bo'yicha maslahatlar kabi tarmoqlarni qamrab oladi. Xizmatlar narxini belgilashda esa bozor mexanizmlariga asoslaniladi — ya'ni, bu qiymat tomonlar o'rtasida tuziladigan shartnoma orqali kelishib olinadi. Turizm xizmatlari ham aynan shunday bozor tamoyillariga asoslangan xizmatlar majmuasidir. Shuningdek, tovarlar bilan savdoda mahsulot iste'molchiga yetkazib berilsa, turizmda bu jarayon teskari — iste'molchi (sayyoh) xizmat ko'rsatiladigan joyga o'zi boradi. Bu jihat turizmni iqtisodiyotning boshqa sohalaridan ajratib turadigan muhim xususiyatlardan biridir.

1 - Jadval

Davlat tomonidan ekologik turizmni rivojlantirish bo'yicha asosiy yo'nalishlar⁶

Yo'nalishlar	Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar
Huquqiy-me'yoriy asoslar	Prezident qarorlari, ekologik qonunchilik, ijaraga yer ajratish
Infratuzilmani rivojlantirish	Ekologik transport, ekomehmonxonalar, turistik zonalar
Axborot texnologiyalari	"Tabiatga sayohat" platformasi, ekoturizm raqamli xaritalari
Subsidiyalar va imtiyozlar	Kreditlar, soliq imtiyozlari, xalqaro grantlar
Mahalliy hamjamiyatni qo'llab-quvvatlash	Ish o'rinlari yaratish, hunarmandchilik, ta'lim dasturlari

O'zbekistonda ekologik turizmning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan qator muhim yo'nalishlarda tizimli ishlar olib borilmoqda. Ular quyidagicha guruhlashtiriladi (1 – jadval):

1. Huquqiy-me'yoriy asoslar

Davlat ekologik turizm sohasini tartibga solish va rivojlantirish uchun zarur huquqiy-me'yoriy bazani shakllantirmoqda. Xususan, Prezident qarorlari va ekologik qonunchilik asosida ekologik zonalarini aniqlash, ularni himoya qilish va u yerlardan oqilona foydalanishni tartibga solish choralari ko'rilmoqda. Shuningdek, ekologik hududlarda turizm faoliyati bilan shug'ullanish uchun yer uchastkalarini ijaraga ajratish mexanizmlari yo'lga qo'yilgan.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (2023) – Ekoturizmni rivojlantirish strategiyasi.

2. Infratuzilmani rivojlantirish

Ekoturizmni rivojlantirish uchun zamonaviy va ekologik toza infratuzilma zarur. Shu bois, ekologik transport turlarini joriy qilish, ekologik mehmoxonalar (ekomehmonxonalar)ni qurish va maxsus turistik zonalarini barpo etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Bu infratuzilmalar sayyohlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bilan birga, tabiiy muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga xizmat qiladi.

3. Axborot texnologiyalari

Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ekoturizmga oid axborotlarni keng ommaga yetkazish imkoniyati kengaymoqda. Masalan, "Tabiatga sayohat" platformasi orqali sayyohlar ekologik marshrutlar, diqqatga sazovor joylar va xizmatlar haqida ma'lumot olishlari mumkin. Ekoturizm uchun maxsus raqamli xaritalar ishlab chiqilishi esa tashrif buyuruvchilarning qulay harakatlanishini ta'minlaydi.

4. Subsidiyalar va imtiyozlar

Davlat tomonidan ekoturizm subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida moliyaviy va iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari yo'lga qo'yilgan. Ular qatoriga imtiyozli kreditlar, soliq imtiyozlari, xalqaro donor tashkilotlar tomonidan ajratiladigan grantlar kiradi. Bu choralar ekologik turizmga investitsiyalar jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi.

5. Mahalliy hamjamiyatni qo'llab-quvvatlash

Ekoturizmning barqaror rivojlanishida mahalliy aholining faol ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun davlat tomonidan ushbu hududlarda yangi ish o'rinlari yaratish, an'anaviy hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash hamda aholini ekoturizm sohasiga tayyorlashga qaratilgan ta'lim dasturlarini joriy etish choralari ko'rilmqda. Bu esa aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash bilan birga, turizm resurslarining samarali boshqarilishini ta'minlaydi.

Xizmatlar eksporti deganda, doimiy yashash joyi bo'lmagan mamlakatga turli maqsadlarda – dam olish, xizmat safari, xususiy yoki boshqa ehtiyojlar bilan tashrif buyurgan xorijiy fuqarolarning amalga oshirgan xarajatlari tushuniladi. Bunday xizmatlar tarkibiga, avvalo, sayohat (tur paketlari) uchun to'langan mablag'lar, xorijiy mehmonlarga ko'rsatilgan pullik xizmatlar qiymati, mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalarida xonalar uchun to'lovlar, sovg'alik mahsulotlar (suvenir) savdosidan tushgan daromadlar, shuningdek, xalqaro transport xizmatlaridan olingan foyda kiradi.

Xizmatlar eksportida mehmonxona xo'jaligi daromadlari muhim o'rin egallaydi. Bular jumlasiga xonalar uchun to'lov, ovqatlantirish xizmatlari, restoran, bar, tungi klublardan foydalanish, banket va konferensiyalar tashkil etish, transport xizmatlari, teatr chiptalari va boshqa madaniy-ko'ngilochar xizmatlar orqali olinadigan tushumlar kiradi. Aksincha, turizm importi mamlakat fuqarosining boshqa davlatga, bir yilgacha bo'lgan

muddatga turli maqsadlarda (sayohat, xizmat safari, davolanish va boshqalar) chiqishi jarayonida yuzaga keladigan iste'mol xarajatlari yig'indisidan iboratdir. Ushbu xarajatlar sayohatga tayyorgarlik ko'rish, safarni amalga oshirish va tashrif buyurilayotgan mamlakatda bo'lish davrida yuzaga keladigan sarf-xarajatlarni o'z ichiga oladi. Bu xarajatlar, odatda, xorijiy safardan qaytganidan so'ng chiqib ketgan davlat tomonidan hisobga olinadi.

Ma'lumki jahonda biron bir omil statik xarakterga ega bo'lmaydi, shunday o'zgarishlar yuz beradiki, ular mamlakatlardagi vaziyatning yaxshilanishiga yoki yomonlashishiga sabab bo'ladi. Turizm sohasidagi global tajribaga ko'ra, turistlar mavjud shart-sharoitlarning o'zgarishiga tezda moslashadi va bunga safar yo'nalishlarini o'zgartirish orqali javob qaytaradi. Boshqacha qilib aytganda, ular tanlov erkinligiga ega bo'lib, agar u yoki bu omillar (xizmat sifati, narxlar, xavfsizlik va boshqalar) ularning kutgan natijalariga mos kelmasa, boshqa marshrutlarni tanlashga moyil bo'ladilar.

Jahon amaliyotida mamlakat hududi bo'ylab milliy va xorijiy fuqarolarning yil davomida amalga oshiradigan sayohatlari hajmi ichki turizm sifatida baholanadi. Shu bilan birga, ichki turistlar sonini aniq aniqlash ba'zi holatlarda murakkablik tug'diradi. Buning sababi, ular ko'pincha safar davomida rasmiy ro'yxatdan o'tmaydilar, doimiy ravishda mehmonxonalar, pansionatlar yoki dam olish uylaridan foydalanmaydilar. Ko'plab ichki sayohatlar boshqa shaxsiy ehtiyojlar – masalan, xarid qilish, qarindosh-urug'larni ziyorat qilish, to'y yoki boshqa tadbirlarda ishtirok etish kabi maqsadlar bilan birlashib ketadi.


Shu turdagi sayohatlar mamlakat ichidagi safarlarning asosiy qismini tashkil etadi. Ular, odatda, kech bahor, erta yoz va kuz mavsumida eng yuqori cho'qqisiga chiqadi. Ichki sayyohlar xarajat jihatidan qulay bo'lgan temir yo'l va avtomobil transporti vositalaridan foydalanishni afzal ko'radilar, bu esa ularning mobil harakatlanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston hududida tarixiy-madaniy, me'moriy va arxeologik ahamiyatga ega bo'lgan 7 mingdan ortiq obidalar mavjud bo'lib, ular xorijiy sayyohlar uchun katta qiziqish uyg'otadi. B. To'raevning fikriga ko'ra, ushbu obidalar tarkibida 545 ta me'moriy, 575 ta tarixiy, 1457 ta san'at yodgorliklari va 5500 dan ortiq arxeologik obyektlar mavjud. Biroq, shuncha boy tarixiy merosga ega bo'lishiga qaramay, hozirda ulardan atigi 140 tasi turizm sohasiga faol jalb etilgan.

Yodgorliklarni saqlab qolish va ularni turizmga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 200 dan ortiq obyektlar rekonstruksiya qilinayotgan bo'lsa, yana 500 ga yaqin obyekt kapital ta'mirga muhtoj hisoblanadi. Bu borada har yili o'n millionlab AQSh dollari miqdorida mablag' sarflanishi talab etiladi. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ayrim holatlarda sayyohlar uchun obyektlarning ta'mirlash jarayoni

ham o'ziga xos qiziqish uyg'otadi va bu turistik oqimni rag'batlantiruvchi omil sifatida xizmat qilishi mumkin.

Bundan tashqari, O'zbekistonda 300 dan ortiq muzey va 1200 ga yaqin xalq amaliy san'ati korxonalari faoliyat yuritmoqda. Sayyohlar tashrif buyuradigan obyektlar soni viloyatlar kesimida quyidagicha: Toshkentda – 144 ta, Samarqandda – 118 ta, Buxoroda – 221 ta, Xivada – 310 ta. Shunga qaramay, mavjud turistik salohiyatdan to'laonli va samarali foydalanilmayotgani kuzatilmoqda. Bu esa mavjud imkoniyatlarni chuqur tahlil qilish, infratuzilmani rivojlantirish va marketing strategiyalarini kuchaytirish zaruratini ko'rsatadi.⁷



1 – diagramma. Davlat tomonidan ekologik turizmni rivojlantirish choralarining yo'nalishlar bo'yicha ulushi⁸.

O'zbekistonga turistik yoki shaxsiy maqsadlarda tashrif buyuruvchi xorijiy fuqarolarning kamida 10 foizi o'z sayohatlarida ekologik jihatlarni hisobga oladi. Bunday sayyohlar odatda tabiiy landshaftlarga — milliy bog'lar, tog'li hududlar, o'rmonlar yoki ko'llarga tashrif buyurishni afzal ko'radilar. Shu bilan birga, ular ko'pincha yaqin qishloq joylariga qisqa muddatli (bir kunlik) ekskursiyalarni ham rejalashtiradilar. Bunday turdagi sayohatlar ekologik turizm shakliga kiradi va ularning soni asta-sekin ortib bormoqda. Ularning kamida 60 % aralash turga ehtiyoj sezishadi, xususan, etnografiya bilan ekologiyaga qiziqishadi⁹. Natijada tashkiliy turistlar ekologik turlarga

⁷ B. To'rayev. Turistik faoliyatda menejment tizimini takomillashtirish. Dissertatsiya avtoreferati. Samarqand, 2005, 15 bet

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (2023) – Ekoturizmni rivojlantirish strategiyasi.

⁹ Н. Тухлиев, Т. Абдуллаев. Экологический туризм: сущность, тенденции и стратегия развития. Т., 2006, стр 22

“ixtisoslashishmoqda”. Shunday qilib turizmning yangi shakli-ekologik turizm shakllanmoqda. Ekologik turizmning umumiy turizm bozoridagi aniq o‘rnini ko‘rastish qiyin, albatta. Ko‘pincha bunday xizmat shaklini boshqa turistik xizmat turlaridan ajratish qiyin¹⁰.

Ko‘pincha ekologik turizmni boshqa turistik xizmat turlaridan aniq ajratib ko‘rsatish mushkul. Shunga qaramay, bu yo‘nalishning turizm sohasidagi ulushi hozircha nisbatan past darajada ekanligi kuzatiladi. Mazkur sohaga oid tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmaganligi va uning istiqbolli yo‘nalish sifatida shakllanayotgani ushbu masalani nazariy jihatdan chuqur tahlil qilish zarurligini taqozo etadi.

Rivojlanib borayotgan mamlakatning turizm industriyasi asosan tabiiy yoki ekologik turizm hisobiga amalga oshirilmoqda. Ekspertlarning ma'lumotlariga qaraganda ekoturizm sayyohlik bozorining 10-20 % qamrab olgan, o‘shish sur'ati esa umumiy turizm industriyasining o‘shish sur'atidan 2-3 marotaba oshib ketgan. Ammo ekoturizmning mamlakatimizdagi salohiyat ko‘rsatkichlari, maqsadi, tashkiliy-huquqiy, ta'lim tarbiya, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari, bu sohada xizmat va servis ko‘rsatishni rivojlantirish muammolari etarli darajada ishlab chiqilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2022). O‘zbekistonning yangi turizm strategiyasi: Raqobatbardosh turizmni shakllantirish yo‘nalishlari. Toshkent: Prezident Farmonlari to‘plami
2. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (2024). Raqamli turizm boshqaruvi: Yangi texnologiyalar va yondashuvlar. Toshkent
3. Uzbekistan Tourism Development Strategy (2024–2025). Comprehensive Plans for Tourism Development. Toshkent: Uzbekistan Tourism Committee
4. Тешабаева, О. Н. (2025). Туризм соҳасида тадбиркорликни ривожлантиришнинг иқтисодий механизми: глобал тенденциялар ва миллий тажриба. Modern educational system and innovative teaching solutions, 1(8), 199-204.
5. Nasridinovna, T. O. (2025). Global impact and recovery of the tourism business and increasing the competitiveness of the tourism industry in Uzbekistan. modern problems in education and their scientific solutions, 1(6), 125-131.
6. Nasridinovna, T. O. (2024). Methods of Assessing the Competitiveness of Entrepreneurial Activity in Tourism Enterprises. Gospodarka i Innowacje., 46, 590-594.

¹⁰ Xamroqulov, O., & Fozilova, Z. (2024). Ekoturizm. Namangan Davlat Universiteti. www.namdu.uz

7. Nasridinovna, T., & Mirzabahrom, M. (2024). Innovative Reforms and Economic Strategies in the Development of Domestic Tourism in Uzbekistan. *Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences*, 3(4), 10-17.

8. Nasriddinovna, T. O. (2024). Prospects for the growth of tourism in Uzbekistan and the use of organizational and economic methods in the management of tourist complexes. *International journal of artificial intelligence*, 4(07), 98-103.

9. Nasridinovna, T. O. (2023). Factors affecting the management of competitiveness in tourism enterprises. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(10), 159-163.

10. Насридиновна, Т. О. (2024). Пути формирования методов продажи туристических услуг при развитии туризма в Узбекистане. *International journal of scientific researchers (IJSR) indexing*, 4(1), 139-145.

11. Nasridinova, T. O. (2024). Developing employee management strategies in hotel management. *American journal of business management*, 2(5), 1-7.

12. Nasridinovna, T. O. (2025, April). The importance of effective marketing strategies in the development of tourism services. In *conference of modern science & pedagogy* (Vol. 1, No. 1, pp. 119-124).

13. Saparboyeva, Z. S. (2023). O'zbekistonda ekologik turizmini rivojlantirish. *Journal of Innovations in Scientific and Educational Research*, 6(4), 258–262.
КиберЛенинка